QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR MAFKURAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISH ZARURATI

https://doi.org/10.70728/a.series.v08.i02.122

Yusubov Jamshid
O`zbekiston Milliy universiteti dotsenti, DSc
Boymurodov Sanjar
O`zMU Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv jarayonining yoshlar ma’naviy dunyoqarashi va mafkuraviy barqarorligiga ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari ochib berilib, axborot oqimlari orqali yuzaga kelayotgan mafkuraviy tahdidlar mazmuni yoritilgan. Tadqiqotda mafkuraviy immunitet tushunchasining mohiyati, uning tarkibiy unsurlari hamda yoshlar ongida mustahkam e’tiqod va tanqidiy fikrlashni shakllantirish mexanizmlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, mafkuraviy immunitet, yoshlar siyosati, ma’naviy tahdid, axborot xavfsizligi, milliy qadriyatlar, g‘oyaviy ta’sir, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar.

Аннотация.В данной статье представлен научно-теоретический анализ влияния процесса глобализации на духовное мировоззрение и идеологическую устойчивость молодежи. Раскрываются позитивные и негативные аспекты глобализации, а также освещается содержание идеологических угроз, возникающих посредством информационных потоков. В исследовании обосновывается сущность концепции идеологического иммунитета, его компоненты и механизмы формирования устойчивых убеждений и критического мышления в сознании молодежи.

Ключевые слова: глобализация, идеологическая неуязвимость, молодежная политика, моральная угроза, информационная безопасность, национальные ценности, идеологическое влияние, духовные и образовательные реформы.

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the impact of the globalization process on the spiritual worldview and ideological stability of young people. The positive and negative aspects of globalization are revealed, and the content of ideological threats arising through information flows is highlighted. The study substantiates the essence of the concept of ideological immunity, its components, and the mechanisms for forming strong beliefs and critical thinking in the minds of young people.

Keywords: Globalization, ideological immunity, youth policy, moral threat, information security, national values, ideological influence, spiritual and educational reforms.

Introduction(Kirish). XXI asr globallashuv jarayonlari insoniyat taraqqiyotining muhim bosqichini boshlab berdi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji, iqtisodiy integratsiya, madaniyatlararo muloqotning kengayishi davlatlar va jamiyatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirdi. Shu bilan birga, globallashuv nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar, balki mafkuraviy xavf-xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda.

Bugungi sharoitda yoshlar ongiga turli axborot oqimlari orqali ta’sir o‘tkazish jarayoni kuchaygan. Ayniqsa, internet makoni, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat vositalari orqali kirib kelayotgan g‘oyaviy ta’sirlar milliy o‘zlik, qadriyatlar va ma’naviy mezonlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, mafkuraviy immunitetni shakllantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlar ma’naviyatini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasida yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning mafkuraviy barqarorligini ta’minlash muhim vazifa etib ko‘rsatildi[89].

Har qanday ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo‘lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Globallashuv davrida davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulay imkoniyatlar vujudga kelishi, ko‘plab yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg‘unlashuvi, tsivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o‘zaro yordam ko‘rsatish imkoniyatlarining ortishi kabi ijobiy jihatlar ham yuz beradi. Globallashuv jarayonining ayni paytda mafkuraviy ta‘sir o‘tkazish vositasi sifatida turli siyosiy kuchlar manfaatlariga xizmat qilayotganini, ushbu jarayon orqali milliy qadriyatlarimizga yot g‘oya va qarashlar yopirilib kirib kelayotganini, bularning barchasi qanday salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Xususan, bugungi kunda inson ma‘naviyatiga yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyulgan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin. Darhaqiqat, harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiqni sezish, ko‘rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta‘siri va oqibatlarini tezda ilg‘ab olish qiyin. Shu ma‘noda, tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlargadoimo sergak, ogoh va hushyor bo‘lib yashash, loqaydlik va beparvolikka barham berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Methods(Metodologiya). Ma‘naviyatga qarshi turli xurujlar haqida gapirar ekan, faqat bitta millat yoki xalq haqida fikr yuritish masalani o‘ta tor tushunish bo‘lur edi. Ya‘ni, bu

[89] Mirziyoyev Sh.M. Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan tantanali tadbirdagi nutq. Yangi O‘zbekiston bog‘i, 2025-yil 21-mart. www.prezident.uz

o‘rinda so‘z faqat bizning ma‘naviyatimizga qarshi qaratilgan tajovuzlar haqida, azaliy fazilatlarimiz, milliy qadriyatlarimizni ana shunday hujumlardan asrash xususidagina borayotgani yo‘q. Muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ushbu muammoni keng miqyosda, dunyoning barcha mamlakatlari va xalqlari hayotiga daxldor masala sifatida o‘rganish, tahlil qilish va baholash maqsadga muvofiqdir. Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- tizimli va qiyosiy tahlil;
- normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish;
- konseptual yondashuv;
- ijtimoiy-falsafiy tahlil.

Tadqiqot jarayonida O‘zbekiston Respublikasining yoshlar siyosati, ma’naviyat va axborot xavfsizligi sohasiga oid qonunlari, Prezident farmon va qarorlari hamda ilmiy manbalar asos sifatida olindi.

Biz milliy urf-odatlarimiz, marosimlarimizga baho bermoqchi bo‘lsak, butun insoniyat manfaatlari nuqtai nazarini, alohida shaxs erkinligi, Vatan va millat manfaatlarini, milliy qadriyatlarimiz majmuini yaxlit uyg‘unlikda olib qaramog‘imiz talab etiladi. Agar shu uyg‘unlikka mohiyatan muvofiq bo‘lsa, yoxud loaqal unga zid bo‘lmasa, demak, maqbul, ammo insonlararo ziddiyat tug‘dirsa, nifoq solsa, yoki o‘zga shaxs erkini bo‘g‘sa, Vatan va millat manfaatlariga zid bo‘lsa, demak, maqbul emas. Ammo milliy ma‘naviyatimizni qadrlashimiz, uni rivojlantirishga urinishimiz, kimlardir talqin qilmoqchi bo‘layotganidek,o‘zga xalqlar madaniyatini mensimaslik yoki milliy xudbinlikka berilishni anglatmaydi, balki uzoq yillik qaramlik asoratidan qutulib o‘zligimizga qaytish, o‘zligimizni anglab yetishga urinishni bildiradi.-Chunki har qaysi millat yoki xalqning ma‘naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini, o‘sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak-shubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Insonning qalbi va ongiga jo’rbo‘lgan milliy ma‘naviy-axloqiy negizlar uni butun umri davomida halol, pok, bilimli, xalq xizmatida bo‘lishga, Vatan ravnaqi hamda taraqqiyotiga hissa qo‘shishga, o‘zining ongli va erkin mushohada qiluvchi shaxs sifatida kamol topishiga muttasil ravishda undaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta‘kidlagandek: “Jahonda shiddat bilan o`zgarayotgan notinch va murakkab vaziyat, turli mojarolar jonajon Vatanimiz xavfsizligini, el-yurtimizning osoyishta hayotini ta`minlash hamda mavjud tahdid va xatarlarga munosib javob berishga doim tayyor turishimizni taqozo etmoqda.

Results(Natijalar). Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlar quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘lmoqda:

1. Axborot manipulyatsiyasi va yolg‘on axborot tarqatish;
2. Ekstremistik va radikal g‘oyalar targ‘iboti;
3. Ommaviy madaniyat orqali milliy qadriyatlarni yemirish;

4. Individualizm va iste’molchilik psixologiyasining kuchayishi.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi: Milliy qadriyatlarni zamonaviy talqinda targ‘ib qilish; Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish; Axborot madaniyatini oshirish; Oila va ta’lim muassasalarining hamkorligi.

2023–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish alohida ustuvor vazifa sifatida belgilangan[90].

Shuningdek, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun[91] hamda “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori[92] mafkuraviy barqarorlikni mustahkamlashning huquqiy asosini yaratdi.Bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida katta ma‘naviy yo‘qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin. Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma‘naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog‘liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va bunday xatarli holatdan faqat o‘z xalqini emas, balki butun jahon afkor ommasini ogohlantirish lozim.

Ma‘naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e‘tiqodidan qat‘i nazar, har qaysi odamning tom ma‘nodagi erkin inson bo‘lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko‘zda tutadigan mafkuraviy, g‘oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutiladi.

Discussion(Muhokama). Globallashuvni to‘xtatib bo‘lmaydi, ammo uning salbiy oqibatlarini kamaytirish mumkin. Mafkuraviy immunitet – bu yoshlarning mustaqil fikrlash, g‘oyaviy bosimlarga tanqidiy yondashish, milliy manfaatlarni anglash va himoya qila olish qobiliyatidir.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirish quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim: Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi; Huquqiy ong va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirish; Axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirish; Ochiqlik va konstruktiv muloqot.

Prezident Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, bugungi murakkab davrda yoshlarni turli buzg‘unchi g‘oyalardan asrash uchun ularni mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida tarbiyalash zarur[93].Vaziyatning murakkabligi shundaki, bugungi kunda yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash va ziddiyatlar faqat saltanatlar, xalqlar va shaxslar o‘rtasida emas,

[90] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida Farmoni, 2023-yil 11-sentabr, PF–158-son. www.lex.uz

[91] O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016-yil 14-sentabr, O‘RQ–406-son. www.lex.uz

[92] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 3-may, PQ–4307-son. www.lex.uz

[93] Qarang. Mirziyoyev Sh.M. Nutq va ma’ruzalar to‘plami. 1-8 jild asarlari. –T.: 2017-2025 .

balki har birimizning qalbimizda, ongimizda ham kechmoqda. Ya‘ni bu muammolar faqat yosh avlodgagina taalluqli emas. Dushman ochiq-oydin o‘zini ko‘rsatmaydi, siz maxsus kabel orqali berilib kino ko‘rib o‘tiribsiz, yoki internet orqali muayyan saytlardagi ma‘lumotlar bilan tanishayapsiz, ko‘chada turli reklamalar diqqatingizni tortayapti, ehtiyot bo‘ling, sizni kerakli yo‘nalishda-tarbiya qilishayapti, o‘z qarashlarini turli vositalar bilan ongingizga singdirishayapti. Ular ko‘pincha turli niqoblar, jozibali shior va g‘oyalar pardasi ostida ish ko‘radi. Biz esa sal g‘aflatga berilsak, ongimizdagi o‘zgarishlarni o‘zimiz ham payqamay qolamiz. Go‘yoki hech kim bizga tajovuz ham qilgani yo‘q, majbur ham qilgani yo‘q, biz o‘z ixtiyorimiz bilan mustaqil ravishda shu xulosaga keldik. Bu yerda ta‘sir o‘tkazishning shunday makkorona usullari qo‘llanmoqda-ki, uncha-muncha odam g‘aflatda qolishi hech gap emas.

Xulosa. Globallashuv jarayonida yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirish davlat va jamiyat oldidagi ustuvor vazifalardan biridir. Bu jarayon milliy o‘zlikni anglash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, huquqiy madaniyatni oshirish va ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash orqali amalga oshiriladi. Mafkuraviy barqarorlik – milliy xavfsizlikning ajralmas qismi hisoblanadi.

Lo‘nda qilib aytadigan bo‘lsak, bunday mafkuraviy xurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishini, ulardan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni ko‘zlashini, o‘ylaymanki, yurtimizda yashaydigan sog‘lom fikrli har bir odam yaxshi tushunadi. Bizning ulug‘ajdodlarimiz, o‘z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar m ajmuini, zamonaviy til bilan aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o‘rinli deb bilaman.

Takror aytishga to‘g‘ri keladi – ota-onalar, ustoz-murabbiylar bu masalada hushyorlikni yo‘qotmasligimiz, yoshlar tarbiyasida aslo beparvo bo‘lmasligimiz zarur.Prezidentning hushyorlikni yo‘qotmaslik, beparvo bo‘lmaslik xususidagi uqdirishlarini to‘g‘ri tushunadigan bo‘lsak, bu degani yosh avlodga to‘g‘ri ta‘lim berish bilan birga, har bir aytgan so‘zimizga avvalo o‘zimiz rioya qilishimiz kerak bo‘ladi.

O‘z-o‘zidan ravshanki, bugungi zamon voqelikka ochiq ko‘z bilan, real va hushyor qarashni, jahonda va yon atrofimizda mavjud bo‘lgan, tobora kuchayib borayotgan ma‘naviy tahdid va xatarlarni to‘g‘ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan tantanali tadbirdagi nutq. Yangi O‘zbekiston bog‘i, 2025-yil 21-mart. www.prezident.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida Farmoni, 2023-yil 11-sentabr, PF–158-son. www.lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016-yil 14-sentabr, O‘RQ–406-son. www.lex.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 3-may, PQ–4307-son. www.lex.uz

5. Qarang. Mirziyoyev Sh.M. Nutq va ma’ruzalar to‘plami. 1-8 jild asarlari. –T.: 2017-2025 .